«T A S D I Q L A N G A N»
O'zbekiston Respublikasi QvaSX
Vazirligi Davlat veterinariya
Bosh boshqarmasi tomonidan
8 aprel 2009 yilda.
O'zR QvaSXV DVBB qoshidagi ITK
20.09.2008 yildagi № 28-sonli bayonnoma.

GENTAMITSIN 10% PREPARATINI HAYVONLARNING BAKTERIAL KASALLIKLARINI DAVOLASH UCHUN QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMASI

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1 Gentamitsin eritmasi 10% (Solutio gentamycini 10%).
1.2 Faol ta'sir etuvchi modda - gentamitsin sulfat.
1.3 Preparat rangsiz holatdan sariq ranggacha bo'lgan, ko'rinuvchan mexanik aralashmalari bo'lmagan shaffof suyuqlikdir. 1 ml preparat ichida 100 mg gentamitsin mavjud.
1.4 Preparat shisha flakonlarda 10; 20; 50; 100; 200 va 250 ml dan qadoqlangan holda ishlab chiqariladi.
1.5 Preparat B ro'yxati bo'yicha, quruq, yorug'likdan pana joyda, bolalar yeta olmaydigan joyda, +5°C dan +25°C gacha bo'lgan haroratda saqlanadi..
Preparatning belgilangan saqlash sharoitlariga rioya qilingan holda yaroqlilik muddati – ishlab chiqarilgan sanasidan 2 yil.

2. FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

2.1 Gentamitsin keng doirali mikroblarga qarshi ta'siriga ega, penitsillinlarga va boshqa antibiotiklarga chidamli stafilokokklarning shtammlariga nisbatan; ba'zi streptokokklar shtammlari, ko'pgina gram-manfiy mikroorganizmlarga (ko'k yiring tayoqchasi, klebsiyella, enterobakter, salmonellalar, shigellalar, protey) nisbatan yuqori samarali ta'sir etadi. Antibiotik anaerob bakteriyalarga, viruslarga, eng sodda hayvonlarga va zamburug'larga ta'sir etmaydi.
2.2 Preparat yuqori bioo'zlashuvchanlikka ega. Mushak ichiga kiritilganda ko'pgina a'zolarga va to'qimalarga yaxshi kirib o'zlashadi. Preparatning qondagi maksimal konsentratsiyasiga kiritishdan keyin 30-60 daqiqa o'tganda erishiladi. Bir martalik inyeksiyadan keyin antibiotikning organizmdagi davolaydigan konsentratsiyasi 8-12 soat davomida saqlanadi. Organizmdan asosan buyrak bilan chiqariladi, siydikda yuqori konsentratsiyasi hosil bo'ladi.

3. QO'LLASH TARTIBI

3.1 Gentamitsinning 10% eritmsi yirik qoramol va mayda shoxli mol, otlar, cho'chqalar, itlar, mushuklarga respirator va oshqozon-ichak kasalliklarini, sepsis, peritonit, piyelonefrit, artritlar, poliartritlar, dermatitlar (itlarda) va gentamitsinga sezgir mikroorganizmlar bilan qo'zg'atilgan boshqa hayvonlar kasalliklarini davolash uchun qo'llanadi.
3.2 Preparat mushakning ichiga quyidagi dozalarda kiritiladi:
- yirik qoramol, mayda shoxli mol (qo'ylar, echkilar), otlar va cho'chqalar: hayvonning 10 kg tana vazniga 0,2 ml eritma (1 kg tana vazniga 2 mg gentamitsin) kuniga ikki marta,
- itlar va mushuklar: birinchi kuni – hayvonning 10 kg tana vazniga 0,4 ml eritma kuniga ikki marta (1 kg vazniga 4 mg gentamitsin); ikkinchi va undan keyingi kunlari – hayvonning 10 kg tana vazniga 0,4 ml eritma kuniga bir marta.
Yangi tug'ilgan hayvonlarga hayotining birinchi kunlarida tavsiya etilgan dozaning faqat yarmisi beriladi. Davolash kursi 3 – 5 kun.
3.3 «Gentamitsin 10%» eritmasini boshqa dori preparatlari bilan bitta shpritsda aralashtirish mumkin emas.
3.4 Nojo'ya ta'siri. Sezgir hayvonlarda allergik reaksiyalar bo'lishi mumkin (teri toshmalari, qichishish, bezgak). Preparat ototoksik va nefrotoksik ta'siriga ega. Preparatni uzoq qo'llash eshitish a'zolari va sakkizinchi miya nervining funksiyalari buzilishiga sabab bo'lishi mumkin (itlar va mushuklarda), shuningdek homilaga zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin.
3.5 Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar. Buyrak funksiyasining buzilishi, gentamitsinga o'ta sezgirlik, boshqa nefrotoksik preparatlar, miorelaksantlar va ba'zi umumiy anestetiklar bilan bir vaqtda qo'llash, gentamitsinga o'ta sezgirlik.
Gentamitsinni penitsillinlar, ba'zi sefalosporinlar, boshqa aminoglikozid antibiotiklar (kanamitsin, neomitsin, streptomitsin), xloramfenikol, kolistin, polimiksin, sulfanilamidlar bilan bir vaqtda qo'llash mumkin emas.
Gentamitsin sulfat 10% inyeksiyalar uchun eritmasini antibiotik-aminoglikozidlarga yuqori sezgirlik bo'lganda, buyrak funksiyasining og'ir buzilishlari, uremiya va homiladorlik paytida ehtiyotlik bilan qo'llash lozim.
3.6 Hayvonlarni go'sht olish uchun so'yish preparatni oxirgi kiritishdan keyin kamida 21 kun o'tganidan so'ng ruxsat etiladi. Inyeksiya joyi va buyrak oziq-ovqat maqsadlari uchun 45 kun davomida ishlatilmaydi. Majburan hollarda ko'rsatilgan muddat tugashidan avval so'yilgan hayvonlarning go'shti mo'ynali hayvonlarga yedirish uchun yoki go'sht-suyak unini ishlab chiqarish uchun ishlatilishi mumkin.
Preparat qo'llanilgan hayvonlardan olingan sutni kishilarga ovqat maqsadlari uchun preparatni qo'llash to'xtatilganidan keyin 3 kun davomida ishlatish taqiqlanadi. Bunday sutni hayvonlarni oziqlantirish uchun ishlatilishi mumkin.

4. E'TIROZLARNI BILDIRISH TARTIBI

4.1 Preparat mazkur Yo'riqnomaning talablariga mos kelmagan holda, uni qo'llash to'xtatiladi, bu haqda O'zbekiston Davlat veterinariya preparatlarining ilmiy-nazorat laboratoriyasiga quyidagi manzil bo'yicha bildiriladi: 700178, Toshkent shahri, A.Yunusov ko'chasi, 1a-uy. Tel./faks: 228-76-14, 229-30- 47. E-mail: uzgnkl@rambler.ru. Ayni paytda laboratoriya manziliga laboratoriya bilan avvaldan kelishilgan miqdorda preparatning ochilmagan o'ramlari, va preparatning Yo'riqnoma talablariga mos kelmasligi xususiyatlarining batafsil ta'rifi yuboriladi.

Ishlab chiqaruvchi:
O'zbekiston-Buyuk Britaniya-Rossiya Qo'shma Korxonasi
«O'ZBIOKOMBINAT» MChJ
140532, O'zbekiston Respublikasi,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani,
«Namuna» QFY, O'rta - Charxin mahallasi,
Tel: +998 (95) 500 8161
Sotuv bo'limi: +998 (95) 509 0500
www.biokombinat.uz
info@biokombinat.uz

TS 00483044-14:2013

biveco®
biveco.com